



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:4 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li</i>	4
2.	QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'NING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI <i>Bobomurodov Abdurasul</i>	7
3	KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH <i>Ruziyev Oybek Abdimuminovich, Karimov Erkin Yusubovich</i>	10
4	KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY RESURSLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRIGA TA'SIR E'TUVCHI OMILLARI <i>Ketmanov Avazbek Malikovich</i>	13
5	ELEKTR ENERGIYASINI SOTISHDA YO'QOTISHLARNI QOPLASH BO'YICHA HISOB-KITOBLAR <i>Nurniyozov Feruz Abdurashid o'g'li</i>	16

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



ELEKTR ENERGIYASINI SOTISHDA YO'QOTISHLARNI QOPLASH BO'YICHA HISOB-KITOB-LAR

Nurniyozov Feruz Abdurashid o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi
Email:feruznurniyozov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada elektr energiyasini sotishda yuzaga keladigan yo'qotishlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish amaliyoti tadqiq etilgan. Me'yordan ortiqcha aniqlangan va aybdor shaxslar hisobiga qoplanishi lozim bo'lgan yo'qotishlarning amaldagi hisob tartibida boshqa xarajatlar bilan birga umumlashtirilib ko'rsatilishi muammo sifatida asoslangan. Tadqiqot natijasida Hisoblar rejasidagi 4890 "Boshqa debitorlar qarzlari" schotiga 4891 "Qoplanadigan yo'qotishlar bo'yicha hisob-kitoblar" subschotini kiritish taklif etilgan, uning yordamida qoplanadigan yo'qotishlarni xarajatlardan ajratgan holda debitor qarz sifatida kuzatish mumkinligi asoslangan.

Kalit so'zlar: elektr energiyasi yo'qotishlari, yo'qotishlarni qoplash, buxgalteriya hisobi, debitor qarlar, hisoblar rejai, elektr tarmoqlari korxonalari.

Abstract: This scientific article examines the accounting practices for recording losses arising from the sale of electrical energy. It substantiates that losses exceeding the established norms and subject to compensation by responsible persons are currently aggregated with other operating expenses in the existing accounting system, which constitutes an accounting problem. Based on the findings, the study proposes introducing subaccount 4891, "Settlements for Recoverable Losses," under account 4890, "Other Accounts Receivable," in the Chart of Accounts. The proposed subaccount would enable recoverable losses to be accounted for separately from expenses and recognized as accounts receivable.

Keywords: electrical energy losses, loss recovery, accounting, accounts receivable, chart of accounts, electric power distribution companies.

Абстрактный: В данной научной статье исследована практика отражения в бухгалтерском учёте потерь, возникающих при реализации электрической энергии. Обосновано, что потери, выявленные сверх установленных норм и подлежащие возмещению за счёт виновных лиц, в действующем порядке бухгалтерского учёта обобщаются вместе с прочими расходами, что рассматривается как существующая проблема. По результатам исследования предложено ввести в План счетов к счёту 4890 «Задолженность прочих дебиторов» субсчёт 4891 «Расчёты по возмещаемым потерям». Обосновано, что применение данного субсчёта позволит учитывать возмещаемые потери отдельно от расходов и отражать их в составе дебиторской задолженности.

Ключевые слова: потери электрической энергии, возмещение потерь, бухгалтерский учёт, дебиторская задолженность, план счетов, предприятия электрических сетей.

Kirish (Введение/Introduction).

O'zbekiston Respublikasida elektr energetika sohasini isloh qilish, tarmoqni raqamlashtirish va elektr energiyasi hisob-kitoblarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 29 iyuldagi qarori bilan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarfining ruxsat etilgan me'yorlarini hisoblash tartibi tasdiqlangan bo'lsa 2025 yil 27 noyabrdagi qaror bilan elektr energiyasini hisobga olish tartibi, shu jumladan hisobga olish tizimining ruxsat etilgan xatoliklari bilan bog'liq yo'qotishlar (ruxsat etilgan nobalans) tushunchasi belgilangan. Shuningdek, 2025 yil 9-sentyabr oyida elektr energiyasini sotishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizomga ham o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ko'rinib turibdiki, davlat tomonidan elektr energiyasi yo'qotishlarini me'yorlashtirish va hisobga olish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Biroq, amaldagi tartibda hududiy elektr tarmoqlari korxonalari (HETK) tomonidan aniqlanadigan, me'yordan ortiqcha va aybdor shaxslar (noqonuniy ulanish, hisob asboblarni buzish va hokazo sabablar) hisobiga qoplanishi lozim bo'lgan yo'qotishlar buxgalteriya hisobida alohida obyekt sifatida kuzatilmaydi — ular boshqa barcha yo'qotishlar qatori davr xarajati sifatida hisobdan chiqariladi. Natijada korxona rahbariyati va moliyaviy xizmatlar ushbu summalarining undirilish jarayonini buxgalteriya hisobi orqali nazorat qila olmaydi, bu esa moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining shaffofligiga putur yetkazadi. Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, elektr energiyasini sotishda yo'qotishlarni qoplash bo'yicha hisob-kitoblarni buxgalteriya hisobida to'g'ri va shaffof aks ettirish tartibini takomillashtirish maqsadida mazkur tadqiqot olib borildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Elektr energiyasi yo'qotishlari va ular bilan bog'liq xarajatlar hisobini takomillashtirish masalalari bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan Shodiyev A.A. tomonidan elektr ta'minoti korxonalarida yuzaga keladigan yo'qotishlarning iqtisodiy mazmuni tahlil qilinib, ularni texnologik, tabiiy va texnik turlarga ajratgan holda tasniflash taklif etilgan, shuningdek yo'qotishlarni buxgalteriya hisobining alohida obyekt sifatida yuritish va bu maqsadda analitik schotlardan foydalanish zarurligi asoslangan. Muallif, jumladan, to'g'ridan to'g'ri yo'qotishlar bilan samarasiz xarajatlarni farqlashga alohida e'tibor qaratgan. Qolaversa MDH mamlakatlarida, ayniqsa Rossiya Federatsiyasida elektroenergetikadagi yo'qotishlarning texnik xususiyatlari va ularning hisobi buyicha olimlar Voronitskiy V.E Jelezko Yu.S., Kazansev V.N kabi olimlarning tadqiqotlarida elektr tarmoqlaridagi yo'qotishlarning texnik (transformator va tarmoqlardagi fizik jarayonlar natijasida yuzaga keladigan) va Majajixov A.A. kommertiya (hisobga olishdagi xatoliklar, noqonuniy iste'mol) turlariga ajratilishi asoslangan. Bundan tashqari o'zimizning kuplab ilmiy maqolalarimizda ham elektr energiya ta'minotining hisobi to'g'risida takliflar berib o'tilgan bo'lib, misol tariqasida Nurniyozov A.F. tomonidan elektr energiya ta'minoti xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda xarajatlar hisobi va auditining nazariy, tashkiliy va uslubiy asoslari o'rganilib, xarajatlar auditining maqsad va vazifalari, shuningdek ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlarda elektr energiyasi yo'qotishlarining iqtisodiy mohiyati, tasnifi hamda xarajatlar auditi masalalari atroflicha yoritilgan bo'lsa-da, me'yordan ortiqcha aniqlangan va aybdor shaxslar hisobiga qoplanishi lozim bo'lgan yo'qotishlarni buxgalteriya hisobida alohida debitor qarz obyekt sifatida — ya'ni xarajatlardan ajratilgan holda — yuritish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqotda ushbu bo'shliqni bartaraf etishga harakat qilindi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы/Methods).

Mazkur tadqiqotda elektr energiyasini sotishda yuzaga keladigan yo'qotishlarni qoplash bo'yicha hisob-kitoblarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining energetika va buxgalteriya hisobi sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarflarning ruxsat etilgan me'yorlarini belgilovchi hamda elektr energiyasini hisobga olish tartibini tartibga soluvchi normativ hujjatlar, shuningdek, 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti talablari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, monografik kuzatish hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Elektr energiyasi yo'qotishlarining tarkibi, ularni me'yoriy va me'yordan ortiq yo'qotishlarga ajratish, buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda qoplash bo'yicha hisob-kitoblarning amaldagi tartibi o'rganilib, mavjud muammolar aniqlandi.

Shuningdek, elektr ta'minoti korxonalarining amaliyoti, ilmiy adabiyotlar va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, yo'qotishlarni hisobga olish va qoplash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi iqtisodiy tahlil usullari, me'yoriy hujjatlar talablari va mavjud ilmiy manbalarni o'zaro solishtirish orqali ta'minlandi.

Izoh: Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida matn tahlil qilish, ilmiy uslubni takomillashtirish va tahrirlash ishlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan taxminan 30 foiz darajada yordamchi vosita sifatida foydalanildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Elektr energiyasini sotish jarayonida yuzaga keladigan yo'qotishlar energetika korxonalarining moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yo'qotishlar mazmuniga ko'ra texnologik (me'yoriy) va me'yordan ortiq (notexnik yoki tijorat) yo'qotishlarga ajratiladi. Texnologik yo'qotishlar elektr energiyasini uzatish va taqsimlash jarayonining tabiiy natijasi bo'lib, amaldagi me'yorlar doirasida ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida e'tirof etiladi. Me'yordan ortiq yo'qotishlar esa elektr energiyasini noqonuniy iste'mol qilish, hisoblagichlarning nosozligi, hisob-kitoblardagi xatolar yoki boshqa tashkiliy omillar natijasida yuzaga keladi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi amaliyotida me'yordan ortiq yo'qotishlar ko'pincha boshqa operatsion xarajatlar tarkibida umumlashtirib aks ettiriladi. Natijada bunday yo'qotishlarning kelib chiqish sabablari, aybdor shaxslar bo'yicha taqsimoti va undirish darajasini tahlil qilish imkoniyati cheklanadi. Bu esa korxona rahbariyatining boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektr energiyasi yo'qotishlarini qoplash bo'yicha hisob-kitoblarni takomillashtirish uchun ularni alohida analitik hisobvaraqlarda yuritish maqsadga muvofiqdir. Bunda:

- me'yoriy texnologik yo'qotishlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida;
- me'yordan ortiq aniqlangan yo'qotishlar alohida analitik hisobvaraqlarda;
- aybdor shaxslar zimmasiga yuklatilgan zararlari debitorlik qarzlari sifatida;
- undirilmaydigan zararlari esa amaldagi qonunchilik asosida moliyaviy natijalarga hisobdan chiqarilishi tavsiya etiladi.

Mazkur yondashuv elektr energiyasi yo'qotishlarining tarkibini aniq tahlil qilish, ularning yuzaga kelish sabablari bo'yicha monitoring olib borish hamda har bir yo'qotish turi bo'yicha javobgarlikni belgilash imkonini beradi.

Shuningdek, zamonaviy avtomatlashtirilgan elektr energiyasini hisobga olish tizimlari (ASKUE/AMI) va raqamli billing platformalarini qo'llash natijasida iste'mol qilingan elektr energiyasini real vaqt rejimida nazorat qilish, noqonuniy ulanishlarni tezkor aniqlash hamda tijorat

yo'qotishlarini kamaytirish imkoniyati ortadi. Bu esa yo'qotishlarni qoplash bo'yicha hisob-kitoblarning aniqligi va ishonchligini oshiradi.

O'tkazilgan tahlillar asosida elektr energiyasini sotishda yo'qotishlarni qoplash bo'yicha hisob-kitoblarni takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlari tavsiya etildi:

- me'yoriy va me'yordan ortiq yo'qotishlarni buxgalteriya hisobida alohida analitik hisobvaraqlarda yuritish;
- aybdor shaxslar hisobidan undiriladigan zararlarni alohida nazorat qilish tizimini joriy etish;
- yo'qotishlar bo'yicha ichki audit va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;
- raqamli hisobga olish tizimlari bilan buxgalteriya dasturlarini integratsiya qilish;
- yo'qotishlar bo'yicha boshqaruv hisobotlarini muntazam shakllantirish va tahlil qilish.

Natijada elektr energiyasini sotishda yuzaga keladigan yo'qotishlarni qoplash bo'yicha hisob-kitoblarning shaffofligi ta'minlanadi, moliyaviy hisobotlarning ishonchligi oshadi hamda energetika korxonalarida xarajatlarni samarali boshqarish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, taklif etilgan uslubiy yondashuvlar elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish, debitorlik qarzdorligini qisqartirish va korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari elektr energiyasini sotishda yuzaga keladigan yo'qotishlarni qoplash bo'yicha hisob-kitoblarni takomillashtirish energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Amaldagi hisob tizimida me'yoriy va me'yordan ortiq yo'qotishlarning ayrim hollarda umumlashtirilgan holda aks ettirilishi ularning kelib chiqish sabablari, javobgar shaxslar va qoplash manbalarini to'liq nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi. Natijada boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ichki nazoratni tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashda muayyan muammolar yuzaga keladi.

Tadqiqot davomida elektr energiyasi yo'qotishlarini me'yoriy va me'yordan ortiq turlarga ajratgan holda alohida analitik hisobda yuritish, aybdor shaxslar hisobidan undiriladigan summalarini debitorlik qarzlari sifatida e'tirof etish hamda ularning undirilishini doimiy nazorat qilish hisob tizimining samaradorligini oshirishi asoslandi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan elektr energiyasini hisobga olish tizimlarini buxgalteriya hisobi dasturlari bilan integratsiya qilish yo'qotishlarni tezkor aniqlash va ishonchli hisob-kitoblarni yuritishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- elektr energiyasini sotishda yuzaga keladigan me'yoriy va me'yordan ortiq yo'qotishlar uchun buxgalteriya hisobida alohida analitik hisobvaraqlarni joriy etish;
- me'yordan ortiq yo'qotishlar bo'yicha aybdor shaxslar zimmasiga yuklatilgan zararlarni undirish jarayonini alohida nazorat qilish va muntazam monitoring olib borish;
- elektr energiyasi yo'qotishlarini aniqlash va tahlil qilishda avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimlari (ASKUE/AMI) hamda raqamli billing platformalaridan keng foydalanish;
- energetika korxonalarida yo'qotishlar bilan bog'liq operatsiyalar yuzasidan ichki audit va ichki nazorat tizimini kuchaytirish;
- elektr energiyasini sotishdan yuzaga keladigan yo'qotishlarni qoplash bo'yicha hisob-kitoblarni tartibga soluvchi uslubiy tavsiyalarni amaldagi buxgalteriya hisobi standartlari va sohaviy me'yoriy hujjatlar bilan uyg'unlashtirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi elektr energiyasi yo'qotishlarini hisobga olishning aniqligi va shaffofligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, debitorlik qarzdorligini kamaytirish hamda energetika korxonalarining moliyaviy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, taklif etilgan yondashuvlar elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish va sohada zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/References):

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarfning ruxsat etilgan me'yorlarini hisoblash hamda tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi qarori. 2025 yil 29 iyul, 472-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektr energiyasini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 2025 yil 27 noyabr, 749-son.

3. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ni tasdiqlash to'g'risida. 2024 yil 27 dekabr, 3593-son.
4. Shodiyev A.A. Elektr ta'minoti korxonalarida elektr yo'qotishlarining iqtisodiy mazmuni va tasnifi // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025 yil, yanvar soni.
5. Vorotnitskiy V.E., Jelezko Yu.S., Kazansev V.N. i dr. Poteri elektroenergii v elektricheskix setyax energosistem / Pod red. V.N. Kazanseva. — M.: Energoatomizdat, 1983. — 366 s.
6. Vorotnitskiy V.E. Poteri elektroenergii v elektricheskix setyax: situatsiya v Rossii. Zarubejnyy opit analiza i snijeniya. — M.: Nauch.-issled. in-t elektroenergetiki, 2006. — 72 s.
7. Nurniyazov A.F. Elektr energiya ta'minoti xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda xarajatlar auditining maqsadi va vazifalari // Journal of marketing, 2023.